

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.10.2022.Gr.20.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**UTARBAEVA KAMILA ABUTALIPOVNA**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI NOZOGEOGRAFIK  
VAZIYATIGA ZARARLI KIMYOVIY OMILLARNING TA‘SIRINI  
O‘RGANISH**

**11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**NUKUS – 2024**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
geographical sciences**

**Utarbaeva Kamila Abutalipovna**

Qoraqalpog'iston Respublikasi nozogeografik vaziyatiga zararli kimyoviy omillarning ta'sirini o'rganish..... 3

**Утарбаева Камила Абуталиповна**

Изучение влияния вредных химических факторов на нозогеографическую ситуацию Республики Каракалпакстан..... 21

**Utarbaeva Kamila Abutalipovna**

Study of the influence of harmful chemical factors on the nosogeographic situation in the Republic of Karakalpakstan..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.10.2022.Gr.20.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**UTARBAEVA KAMILA ABUTALIPOVNA**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI NOZOGEOGRAFIK  
VAZIYATIGA ZARARLI KIMYOVIY OMILLARNING TA‘SIRINI  
O‘RGANISH**

**11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya**

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**NUKUS – 2024**

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi B2024.1.PHD/Gr226 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz-rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Turdimambetov Izimbet Raxmetovich**  
geografiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Nizamiev Abdurashit Gumarovich**  
geografiya fanlari doktori, professor

**Ravshanov Alikul Xudoyberdievich**  
g.f.f.d.(PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.10.2022.Gr.20.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "11" yanvar soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; faks: (99861) 223-60-19; e-mail: [ik.geografiya@mail.com](mailto:ik.geografiya@mail.com)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№ 241 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (99861) 223-60-19. e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "24" dekabrda tarqatildi.  
(2024-yil "24" dekabr 5-raqamli reyestr bayonnomasi).

**Z.N.Tojiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi o'rinbosari, g.f.d., professor

**G.A.Xodjaeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kotibi, g.f.n., dotsent

**P.R.Reymov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, g.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda aholining turli kasalliklarga chalinish darajasini kamaytirish va oldini olish, jamoat salomatligini mustahkamlash masalalari hozirgi davrda eng dolzarb muammolardan sanaladi. Zero, BMTning 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun barqaror rivojlanish dasturi 3-maqsvadi "Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish" vazifalari yechimiga yo'naltirilganligi bejiz emas<sup>1</sup>. Ushbu maqsadga erishish esa hududlar aholisi salomatligi va kasallanishining hududiy xususiyat va tafovutlarini tahlil etish, ularning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoit hamda atrof-muhit ifloslanishi bilan bog'liqligini muntazam ravishda o'rganishni taqozo etadi.

Dunyo, uning mintaq va mamlakatlari aholisining salomatligi va kasallanishining hududiy jihatlarini kompleks o'rganish, ularga turli toifadagi nozogeografik va nozoekologik omillar ta'sirini baholash, nozoekologik sharoitni optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan ijtimoiy geografik tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu boradagi tadqiqotlarda tibbiy-geografik rayonlashtirish va zonalashtirish, tabiiy o'choq xususiyatli kasalliklarning tarqalishi, atrof-muhit ifloslanish ko'rsatkichlarining aholi salomatligi va kasallanishiga ta'sirini baholashga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda aholi salomatligini yaxshilash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, tibbiyot muassasalari to'rini rivojlantirish, atrof-muhitning ekologik holatini optimallashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilib, muayyan ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Aholi salomatligi va genofondiga ziyon etkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish"<sup>2</sup> yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, noqulay nozoekologik sharoiti bilan alohida ajralib turadigan Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining kasallanish darajasi va tarkibidagi hududiy tafovutlarini tahlil qilish, ularga atrof-muhit ifloslanishining bevosita va bilvosita ta'sir darajasini baholashga qaratilgan ijtimoiy geografik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi "2022-2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-216-son Qarori, 2022-yil 7-iyuldagi "Qoraqalpog'iston Respublikasida 2022-2024-yillarda aholi salomatligini muhofaza qilishni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-310-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-noyabrdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasida ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 695-son Qarori, 2022-yil 21-fevraldagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-son Qarori hamda ushbu sohaga tegishli boshqa

<sup>1</sup> <https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони.

huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiyalar, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Aholi salomatligi va kasallanishining hududiy tafovut va xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan nozogeografik va nozoekologik tadqiqotlar zamonaviy ijtimoiy geografik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Nozogeografik va nozoekologik tadqiqotlarning nazariy-uslubiy asoslari Morens D.M., Fauci A.S. (AQSH), Kretowicz P (Polsha), Claudia Monica Garcia Lopez (Kolumbiya), Arden William Brennan (Braziliya) va boshqa xorijlik olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.

MDH mamlakatlarida tibbiy-geografiya masalalari A.V.Avtsin, S.I.Belov, A.G.Voronov, I.P.Gerasimov, A.G.Emelyanov, L.N.Ermakova, E.I.Ignatev, V.P.Kaznacheev, A.A.Keller, V.I.Kuvakin, N.Y.Kurepina, S.A.Kurolap, S.M.Malxazova, E.N.Pavlovskiy, V.P.Pospelov, B.B.Proxorov, E.L.Rayx, B.A.Revich, S.V.Ryashenko, Z.A.Semyonova, G.I.Sidorenko, A.I.Spichak, E.S.Feldman, I.A.Xlebovich, A.V.Chaklin, M.G.Shandala, V.A.Shevchenko, A.A.Shoshin kabi olimlar tadqiqotlarida o'rganilgan.

O'zbekiston va uning hududlari, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasining nozogeografik va nozoekologik vaziyati Ch.A.Abdirov, N.A.Agadjanyan, O.A.Ataniyazova, N.F.Glazovskiy, T.B.Eshanov, T.I.Iskandarov, Sh.T.Iskandarova, N.Q.Komilova, L.G.Konstantinova, Z.Madjitova, A.Madreimov, S.M.Mambetullaeva, N.J.Muxammedova, M.I.Nazarov, A.X.Ravshanov, A.S.Soliyev, Z.D.Tillyaxodjaeva, I.R.Turdimambetov, X.T.Tursunov, E.K.Umarov, M.O.Xamrayev, S.B.Shoumarov, H.E.Egamqulov kabi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan. Xususan, mazkur mutaxassislarning ilmiy ishlarida Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi kasallanishiga tabiiy-landshaft va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri, mintqa aholisi turli kasalliklarga chalinishining makon va zamondagi o'zgarishi, Qoraqalpog'iston hududini tibbiy-geografik zonalashtirish (rayonlashtirish) kabi masalalar o'z aksini topgan. Lekin Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy-hududiy birliklari va tibbiy-geografik zonalarida atmosfera havosi va ichimlik suvi manbalarining ifloslanishi hamda aholi kasallanishi va o'limi o'rtasidagi korrelyatsion va funktsional bog'liqlikni tahlil qilishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar hanuzgacha bajarilmagan. Ushbu holat mazkur dissertatsiya ishining ilmiy va amaliy ahamiyati va yangilik xususiyatlarini belgilab beradi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog'iston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FZ-201908019 raqamli "Qoraqalpog'iston Respublikasini tibbiy-geografik vaziyatini yaxshilashda

nozogeografik xaritalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish (2020-2022 yy.)” mavzusidagi amaliy tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma‘muriy-hududiy birliklari va tibbiy-geografik zonalari kesimida aholining turli kasalliklarga chalinish darajasi hamda atrof-muhitning ifloslanish ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion va funksional bog‘liqlikni aniqlash va shu asosda mintaqadagi nozoekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tibbiy-geografik va nozoekologik tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy asoslarini adabiyotlar tahlili asosida o‘rganish, tegishli tadqiqotlar metodlarini ajratish;

Qoraqalpog‘istonning nozoekologik sharoitiga ta‘sir etuvchi geografik omillarni ajratish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va tibbiy-geografik zonalari kesimida atmosfera havosi va ichimlik suvi manbalarining ifloslanish darajasini atrof-muhit monitoringi ko‘rsatkichlari dinamikasini hisobga olgan holda aniqlash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari kesimida aholining turli kasalliklariga chalinish darajasini 2009-2021-yillarga oid statistik ma‘lumotlar asosida tahlil etish va xaritaga olish;

matematik-statistik usullar yordamida Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va tibbiy-geografik zonalari kesimida atmosfera havosi va ichimlik suvi manbalarining ifloslanish darajasi hamda aholining turli kasalliklarga chalinish darajasi orasidagi korrelyatsion va funksional bog‘liqlikni aniqlash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va uning tibbiy-geografik zonalari nozoekologik vaziyatni yaxshilashning ustuvor choralari belgilash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi nozogeografik vaziyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** Qoraqalpog‘iston Respublikasining nozogeografik vaziyatidagi hududiy tafovutlar, ularga atmosfera havosi va ichimlik suvi manbalari ifloslanish darajasining ta‘siri va hududlarda nozoekologik vaziyatni yaxshilash choralari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada matematik-statistik, geografik taqqoslash, zonalashtirish, kartografik, hududiy tahlil usullaridan keng ravishda foydalanilgan. Xaritalar maxsus “ArcGIS” dasturiy taminotining “Unique Values”, “Graduated Colors”, “Bar/Column” “Dot Density” kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan holda tuzilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog‘iston Respublikasining tibbiy-geografik (Shimoliy, G‘arbiy, Markaziy, Janubiy) zonalari kesimida 2009-2021-yillar davri uchun aholi kasallanishi ko‘rsatkichlarining dinamikasi hamda turli guruh kasalliklarining tarqalish darajasi aniqlanib, nozogeografik mazmundagi turkum xaritalar yaratilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining tibbiy-geografik zonalari kesimida aholining nafas olish organlari kasalliklari, sil kasalligi, buyrak tosh va siydik yo‘li

kasalliklariga chalinish ko'rsatkichlari hamda havo ifloslanish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik matematik-statistik usullar orqali isbotlangan;

Qoraqalpog'iston Respublikasining tibbiy-geografik zonalari kesimida aholining qon va qon hosil qilish organlari kasalliklari, buyrak tosh va siydik yo'li kasalliklari, o't toshi va o't yo'llari kasalliklari, tug'ma anomaliyalarga chalinish ko'rsatkichlari hamda ichimlik suvi manbalari (ochiq suv havzalari, quduq suvlari, vodoprovod suvi) ifloslanish darajasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik aniqlangan;

Qoraqalpog'iston tibbiy-geografik zonalari va qishloq tumanlari kesimida aholining xavfli o'smalarga chalinishi va ulardan o'limi ko'rsatkichlari hamda atmosfera havosi va ichimlik suvi manbalarining ifloslanish darajasi o'rtasidagi aloqadorlik ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining kasallanishi va turli toifadagi kasalliklarga chalinishiga atrof-muhitning ifloslanish darajasining ta'siri hududiy birliklar va tibbiy-geografik zonalar kesimidagi ijtimoiy-geografik tahlil doirasida matematik-statistik usullar orqali isbotlangan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining turli toifadagi kasalliklarga chalinish darajasidagi hududiy tafovutlarni o'zida aks ettiruvchi turkum xaritalar yaratilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasining tibbiy-geografik zonalarida nozoekologik vaziyatni optimallashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmatining Qoraqalpog'iston Respublikasi bosh boshqarmasi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati Qoraqalpog'iston Respublikasi bosh boshqarmasi ma'lumotlaridan foydalanganligi, tadqiqot doirasida qo'llanilgan nazariy yondashuvlarning ilmiy asoslanganligi, zamonaviy matematika-statistika usullaridan foydalanilganligi, tadqiqot natijasida olingan xulosa va takliflar, yaratilgan mavzuli xaritalarning amaliyotda joriy etilganligi, ushbu natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati muayyan hudud doirasida atrof-muhit (atmosfera havosi va ichimlik suvining manbalari) kimyoviy ifloslanish darajasi hamda aholining kasallanishi o'rtasidagi korrelyatsion va funktsional bog'liqlikni o'rganishning matematik-statistik usullarining mos yo'nalishdagi ijtimoiy geografik tadqiqotlarni olib borishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natija va xulosalaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi va uning ma'muriy-hududiy birliklarida aholi salomatligini muhofaza qilish, kasallanishning oldini olish, atrof-muhitning nozoekologik holatini yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi kasallanishiga atrof-muhit ifloslanish darajasining ta‘sirini baholash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Qoraqalpog‘iston Respublikasining tibbiy-geografik (Shimoliy, G‘arbiy, Markaziy, Janubiy) zonalarida kesimida 2009-2021-yillar davri uchun aniqlangan aholi kasallanishi ko‘rsatkichlarining dinamikasi hamda turli guruh kasalliklarining tarqalish darajasiga oid xulosalar va shu asosda yaratilgan nozogeografik mazmundagi turkum xaritalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2022-2024-yillarda aholi salomatligini muhofaza qilishni yanada kuchaytirish to‘g‘risida”gi PQ-310-son Qarorida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 5-iyun 2024-yildagi 01/3187-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Respublika hududlari kesimida tibbiy profilaktika tadbirlarini muayyan kasallik guruhlariga qaratish hamda tegishli ishlarning samaradorligini oshirishga imkon bergan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining tibbiy-geografik zonalarida kesimida matematik-statistik usullar orqali isbotlangan aholining nafas olish organlari kasalliklari, sil kasalligi, buyrak tosh va siydik yo‘li kasalliklariga chalinish ko‘rsatkichlari hamda havo ifloslanish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikka oid xulosalaridan Qoraqalpog‘iston Respublikasida atmosfera havosini muhofaza qilish chora-tadbirlarini tibbiy-ijtimoiy jihatdan asoslashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 24-oktyabr 2024-yildagi 02-01/18-2-3518-son ma‘lumotnomasi). Natijada, atmosfera havosi zararlanishining salbiy oqibatlarini hududiy jihatdan aniqlashtirishga imkoniyat yaratilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining tibbiy geografik zonalarida kesimida matematik-statistik usullar orqali isbotlangan aholining qon va qon hosil qilish organlari kasalliklari, buyrak tosh va siydik yo‘li kasalliklari, o‘t toshi va o‘t yo‘llari kasalliklari, tug‘ma anomaliyalarga chalinish ko‘rsatkichlari hamda ichimlik suvi manbalari (ochiq suv havzalari, quduq suvlari, vodoprovod suvi) ifloslanish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikka oid xulosalar ichimlik suvi sifatini monitoring qilish jarayonida qo‘llanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 24-oktyabr 2024-yildagi 02-01/18-2-3518-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ichimlik suvi manbalari yuqori darajadagi ifloslanish ko‘rsatkichlari bilan ajralib turgan hududlarni aniqlashga imkon bergan;

Qoraqalpog‘iston tibbiy-geografik zonalarida va qishloq tumanlari kesimida aholining xavfli o‘smalarga chalinishi va ulardan o‘limi ko‘rsatkichlari hamda atmosfera havosi va ichimlik suvi manbalarining ifloslanish darajasi o‘rtasidagi aloqadorlikka oid xulosalar respublika miqyosida onkologik kasalliklariga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda qo‘llanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 5-iyun 2024-yildagi 01/3187-son ma‘lumotnomasi). Natijada, joylarda onkologik kasalliklari profilaktikasini amalga oshirish jarayonida ekologik omillarni ilmiy asoslangan ravishda hisobga olish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy nufuzli jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tibbiy-geografik va nozoekologik tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy masalalari**" deb nomlangan birinchi bobida tibbiy-geografik tadqiqotlarning umummetodologik masalalari, aholi kasallanishini ekologik-gigienik va ekologik-epidemiologik o'rganish usullari hamda tibbiy-geografik tadqiqotlardagi kartografik usulning ahamiyati ochib berilgan.

Tibbiy-geografik tadqiqotlarning qamrovi ko'p qirrali, keng va murakkabdir. Shunday ekan, muayyan hudud tibbiy-geografik muammolarining xususiyatlaridan kelib chiqib, kerakli sog'lomlashtirish va profilaktika choralarini ishlab chiqishga imkon beradigan tadqiqot yo'nalishlarini tanlash mumkin.

QRda tibbiy-geografik tadqiqotlar o'tkazish uchun eng muhim axborot manbalari SSV Sog'liqni saqlash va tibbiy statistika instituti Qoraqalpog'iston bo'limi va O'zR Davlat statistika qo'mitasining 2009-2021-yillarga mo'ljallangan statistik to'plamlari bo'ldi. Ko'rsatkichlar, qoida tariqasida, 100 ming aholiga hisoblab chiqilgan. Aholining alohida yosh-jinsiy va ijtimoiy guruhlari ko'rsatkichlari tegishli guruhdagi 1000 kishiga nisbatan hisoblab chiqilgan.

Bizning tadqiqotlarimizda asosiy tadqiqot obyektlari ekzogen kelib chiqadigan kasalliklar bo'lib, ular, asosan, zararli ekologik omillar ta'siri bilan bog'lik. Shu bois, tadqiqotda Respublika sanitariya-epidemiologiya xizmati statistik hisobot ma'lumotlaridan olingan atrof-muhit holati (atmosfera havosi, ichimlik suvi manbalari), ifloslanish dinamikasi parametrlari asos bo'ldi.

Ushbu tadqiqotda shahar va tumanlar G'arbiy, Shimoliy, Markaziy va Janubiy tibbiy-geografik mintaqa (zona)larga shartli ravishda ajratib o'rganildi. Har bir zona doirasida shahar va tumanlar markazlarining Orol dengizining eski sohilidan

uzoqlashish masofasiga qarab joylashtirilgan, chunki amalda ma'muriy hudud Orol dengiziga qanchalik yaqin bo'lsa, ekologik ofat oqibatlari shunchalik yaqqol namoyon bo'ladi. Binobarin, yig'ma jadvallardagi shahar va tumanlar respublikaning shimoli-g'arbidan janubi-sharqiga, Mo'ynoq tumanidan To'rtko'lga qadar joylashgan. Ushbu yondashuv nozogeografik nuqtai nazardan ekologik jihatdan aniqlangan kasalliklarni o'rganish va qamrab olishda yaqqollikni sezilarli darajada oshiradi.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog'istondagi nozogeografik omillar va atrof-muhitning kimyoviy ifloslanishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida Qoraqalpog'istonda aholi salomatligiga ta'sir etuvchi nozogeografik omillar tizimi hamda ichimlik suv manbalari va atmosfera havosining kimyoviy ifloslanishi hududiy jihatdan tadqiq etilgan.

QR Amudaryo quyi oqimida, Qizilqum, Qoraqum va Ustyurt platosi bilan o'ralgan ravishdagi hududiy joylashuvi o'ziga xos geografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga ega.

QRda aholi salomatligiga ta'sir etuvchi atrof-muhitning ifloslanishi, ichimlik suvi sifatining yomonlashishi, tuproq va oziq-ovqat mahsulotlarining ifloslanishi, biogeokimyoviy vaziyatning buzilishi, havoning changishida ifodalanadi. Suvning yuqori darajadagi minerallashuvi, keskin kontinental iqlim, landshaft shakllanish jarayonlarining buzilishi orqali yuqumli kasalliklarning yangi o'choqlari paydo bo'lmoqda. Aholi salomatligiga ta'sir etuvchi antropogen omillar majmuasi ichida **“suv omili”** asosiy o'rin tutadi, shuningdek, nozogeografik omillar tizimida iqlim xususiyatlari, yangi biogeokimyoviy vaziyatning shakllanishi, landshaft shakllanishi jarayonlarining buzilishi, tuzlarning ko'chishi ham ko'zga tashlanmoqda.

Mintaqaning shimol tomonga ochiqligi va tekislik xususiyatidagi relyefi shimol, shimoli-g'arb va shimoli-sharqdan havo massalarining erkin kirib kelishiga imkon yaratadi, bu esa iqlimning kontinentalligini yanada oshiradi.

Tadqiqot uchun ma'lumotlar sifatida O'zR va QR SSVlari 12-hisobotlari, QR SEO va JS boshqarmasi laboratoriya majmuasi 2009-2021-yillardagi tekshiruvlar natijalari olingan. Ushbu laboratoriya tekshiruvlari natijalarida ochiq suv havzalaridagi suvning kimyoviy ifloslanishi **“O'zbekiston Respublikasi hududida suv havzalarini himoya qilishga gigienik va epidemiyaga qarshi talablar”** nomli №0318-15-raqamli **“Sanitariya qoida va me'yorlari (SanQ va M)”** ruxsat etgan me'yorlaridan oshib ketgan namunalarning foizdagi ulushi aks ettirilgan.

O'rganilayotgan davrda ochiq suv havzalari suvi ifloslanishida o'zgarish tendentsiyalari aniq emasligini hisobga olib, ushbu davr 2011-2015 va 2016-2020-yillardan iborat bo'lgan ikki besh yillik bosqichga bo'linib o'rganildi va bu orqali ma'lum yaqqollikka erishildi.

Ochiq suv havzalari kimyoviy ifloslanishining eng yuqori ko'rsatkichlari G'arbiy zonaning Qonliko'l (2011-2015-yillarda – 99,3; 2016-2020-yillarda – 72,2), Shimoliy zonaning Taxtako'pir (mos ravishda – 100 va 100), Janubiy

zonaning Beruniy (75,7 va 67,6) va To‘rtko‘l (92,3 va 69,4) tumanlarida, eng past ko‘rsatkich esa Shimoliy zonaning Chimboy tumanida aniqlangan (1-jadval).

1-jadval

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi tibbiy-geografik zonalari bo‘yicha ochiq suv havzalarining me‘yordan ortiq kimyoviy ifloslanish dinamikasi (foizda)**

Zonalar	2011-2015	2016-2020	O‘shish/kamayish
G‘arbiy zona	45,5	45,4	-0,2%
Shimoliy zona	42,2	51,3	+17,7 %
Markaziy zona	38,6	48,6	+21,6%
Janubiy zona	69,1	72,4	+5 %
Qoraqalpog‘iston	43,3	49,5	+14,3 %

Jadval SEO va JS xizmati QR bosh boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

QR aholisining 68,1 foizi vodoprovod suvi bilan ta‘minlangan bo‘lsa, qolgan 32,9 foizi aholi ochiq suv havzalari va quduq suvlaridan foydalanishadi. Ochiq suv havzalari suvi ta‘minoti va sifati yil davomida doimiy bo‘lmagani sababli ochiq suvdan foydalanadigan aholi ham yilning ma‘lum oylarida quduq suvidan foydalanmoqda. Tahlil qilinayotgan yillar davomida Qoraqalpog‘istonda va uning G‘arbiy, Shimoliy va Janubiy zonalaridagi quduq suvlarining kimyoviy (nitratlar, sulfatlar va xloridlar bilan) me‘yordan ortiq ifloslanish darajasi o‘shib bormoqda, Markaziy zonada esa u 19 foizga kamaygan (2-jadval).

2-jadval

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi tibbiy-geografik zonalari bo‘yicha quduq suvlarining me‘yordan ortiq kimyoviy ifloslanish dinamikasi, (% da)**

Zonalar	2011-2015	2016-2020	O‘shish/kamayish
G‘arbiy zona	57,6	64,5	+12%
Shimoliy zona	51,0	62,7	+22,9%
Markaziy zona	92,1	74,7	-19%
Janubiy zona	63,0	70,1	+11,1%
Qoraqalpog‘iston	54,3	59,8	+9,2%

Jadval SEO va JS xizmati QR bosh boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ushbu ikki besh yillikdagi quduq suvlari kimyoviy ifloslanish aniqlangan namunalari ulushi G‘arbiy zonaning Qonliko‘l tumanida 45,9 foizga, Shimoliy zonaning Qora‘zak tumanida 41,3 foizga, Kegeyli tumanida 33,1 foizga o‘sgan bo‘lsa, Markaziy zonaning Xo‘jayli tumanida 26 foizga kamayish aniqlangan.

Tahlil qilinayotgan ikki besh yillikdagi vodoprovod suvining kimyoviy ifloslanishining eng yuqori ko‘rsatkichlari G‘arbiy zonaning Qonliko‘l (2009-yili – 53,8; 2011-yili – 50 foiz; 2014-yili – 60,9 foiz; 2015-yili – 51,5 foiz; 2016 va 2018-yillari – 51,5 foiz); Shimoliy zonaning Chimboy (2010-yili – 57,2 foiz); Markaziy zonaning Nukus (2017-yili – 51,5 foiz) va Xo‘jayli (2010-yili – 51,5 foiz; 2018-yili – 52,7 foiz); Janubiy zonaning Beruniy (2014-yili 58,5 foiz va 2015-yili – 54,7 foiz; 2021-yili – 63,9 foiz) tumanlarida aniqlangan.

Shunindek, QRda va uning G‘arbiy va Shimoliy zonalarida vodoprovod suvining kimyoviy (nitratlar, sulfatlar va xloridlar bilan) me‘yordan ortiq ifloslanish darajasi 12,8 foizga kamaygan, Markaziy va Janubiy zonalaridagi 3-4 foizga o‘sganligi aniqlangan (3-jadval).

Atmosfera havosining kimyoviy ifloslanishi QRda (42 foizga) va Shimoliy zonada (38 foizga) o‘sgan bo‘lsa, qolgan G‘arbiy (26,1 foizga), Markaziy (18 foizga) va Janubiy (17,5 foizga) zonalarda kamaygan. Atmosfera havosining kimyoviy ifloslanishi G‘arbiy zonada va shu zonaning Qo‘ng‘irot tumanida, Markaziy zonaning Xo‘jayli tumanida, Janubiy zonada va shu zonaning Amudaryo tumanida 25 foizdan yuqori bo‘lgan.

3-jadval

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi tibbiy-geografik zonalarida bo‘yicha vodoprovod suvining me‘yordan ortiq kimyoviy ifloslanish dinamikasi, (% da)**

Zonalar	2011-2015	2016-2020	O‘shish/kamayish
G‘arbiy zona	34,5	22,5	-53,3%
Shimoliy zona	18,3	16,4	-11,5%
Markaziy zona	22,2	23,1	+4%
Janubiy zona	30,3	31,3	+3,3%
Qoraqalpog‘iston	26,5	23,5	-12,8%

Jadval SEO va JS xizmati QR bosh boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ushbu ma‘lumotlar Qoraqalpog‘istonda ichimlik suvi va atmosfera havosining kimyoviy ifloslanishi ijtimoiy va sog‘liqni saqlash sohalari uchun jiddiy muammoga aylanayotganidan dalolat beradi.


Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog‘istonda atrof-muhit omillarining aholi salomatligiga ta‘siri”** deb nomlangan uchinchi bobida Qoraqalpog‘istonda atrof-muhit ifloslanishining aholi kasallanishiga ta‘siri, zararli ekologik omillarga moyil bo‘lgan ayrim kasalliklar tahlili, ekologik omillarning ayrim o‘lim ko‘rsatkichlariga ta‘siri hududiy tafovutlari va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Orolbo‘yi mintaqasida ekologik zararli omillarning aholi salomatligi ko‘rsatkichlariga ta‘sirini o‘rganishda ularga eng moyil bo‘lgan nafas organlari, sil, xavfli o‘smalar, tug‘ma anomaliyalar, buyrak tosh va siydik yo‘li kasalliklari, o‘t toshi va o‘t yo‘llari kasalliklari tadqiq etildi.

Intensiv ko‘rsatkichlar, qoida tariqasida, 100 ming aholiga hisoblab chiqilgan. Aholining alohida yosh-jinsiy va ijtimoiy guruhlari ko‘rsatkichlari tegishli guruhdagi 1000 kishiga hisoblangan. Aholi harakati dinamikasining to‘liqligiga erishish uchun statistika boshqarmasining aholining ichki va tashqi migratsiyasi bo‘yicha ma‘lumotlaridan qo‘shimcha ravishda foydalanildi. Kasalliklar dinamikasini o‘rganishda birlamchi kasallanish ko‘rsatkichlari solishtirildi, ya‘ni o‘rganilgan har bir yilda yangi tashxis qo‘yilgan bemorlarning soni 100 ming

aholiga hisoblandi. Bundan tashqari, kasalliklarning alohida nozologik birliklarining hududiy tarqalishi va dinamikasi tadqiq etildi.

2009-2021-yillardagi QR aholisi kasallanish darajasiga ta'sir qiladigan tashqi muhitning asosiy ekologik-gigienik omillari tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha aholining birlamchi kasallanish darajasi (1-rasm) va ochiq suv havzalaridan olingan va kimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha respublikada o'rnatilgan Davlat standartlari me'yorlarga javob bermaydigan suv namunalari ulushi orasida o'rtacha kuchdagi to'g'ri korrelyatsion bog'lanishlar G'arbiy zonaning Qonliqo'l ( $r_{xy}=0,40$ ;  $m_r=3,32$ ), Shimoliy zonaning Chimboy ( $r_{xy}=0,52$ ;  $m_r=8,45$ ), Kegeyli ( $r_{xy}=0,66$ ;  $m_r=2,4$ ) tumanlarida va Markaziy zonaning Nukus shahrida ( $r_{xy}=0,47$ ;  $m_r=6,21$ ), kuchli korrelyatsion bog'lanish – Janubiy zonaning To'rtko'l ( $r_{xy}=0,71$ ;  $m_r=9,89$ ) tumanida aniqlandi. Demak, ko'rsatilgan tumanlarda ochiq suv havzalarining kimyoviy ifloslanishi yuqori bo'lsa, birlamchi kasallanish darajasi ham oshadi.

Barcha aholining 2009-2021-yillardagi birlamchi kasallanish darajasi atmosfera havosining kimyoviy ifloslanishi bilan o'rtacha korrelyatsion bog'liqligi QRda ( $r_{xy}=0,66$ ;  $m_r=7,95$ ), Qonliqo'l ( $r_{xy}=0,39$ ;  $m_r=5,77$ ), Beruniy ( $r_{xy}=0,59$ ;  $m_r=3,66$ ) tumanlarida, Shimoliy zonada ( $r_{xy}=0,46$ ;  $m_r=3,99$ ), kuchli bog'lanish – Taxtako'pir ( $r_{xy}=0,86$ ;  $m_r=2,63$ ) tumanida aniqlandi.




**1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining birlamchi kasallanish xaritasi**

QR bo'yicha 2009-2021-yillarda nafas organlarining kasalliklari ko'rsatkichlarining atmosfera havosi kimyoviy ifloslanishi bilan korrelyatsion bog'lanishlarini aniqlash uchun Pirson usulida hisob-kitoblari qilindi. Olingan natijalarning haqqoniyligi Styudent testi bo'yicha baholandi.

QR SSV statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2009-yili nafas organlarining kasalliklari 1000 aholiga ko'rsatkichi 79,1 ni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 158,3 ni tashkil etib, 2 baravardan ortiq o'sish kuzatildi.

2009-2021-yillarda nafas organlarining kasalliklari ko'rsatkichlarining atmosfera havosi kimyoviy ifloslanishi darajasi bilan to'g'ri kuchli haqqoniy korrelyatsion bog'lanishi Shimoliy zonaning Taxtako'pir tumanida  $r_{xy}=0,795$  (Student testi  $t=4,20$  va  $p=0,95$  bo'lganda) ni tashkil etishi aniqlandi (2-rasm).




**2-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining nafas olish organlari kasalliklariga chalinish xaritasi**

2011-2021-yillarda nafas organlari kasalliklari ko'rsatkichlarining atmosfera havosining kimyoviy ifloslanishi darajasi bilan to'g'ri o'rtacha haqqoniy korrelyatsion bog'lanishi Shimoliy zonaning o'zida  $r_{xy}=0,68$  (Student testi  $t=2,378$  va  $p=0,95$  bo'lganda) kuzatildi.

Orol ekologik inqirozi oqibatida QRda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi murakkabliklar respublikaning ayniqsa Shimoliy zona tumanlarida qiyinchiliklar va orqada qolishga olib keldi. Nisbatan yengilroq holat Janubiy zona tumanlarida bo'lsa, Shimoliy, G'arbiy va Markaziy zona tumanlari o'rtacha holatni egallashgan. Ushbu holat sil bilan kasallanish darajasi shakllanishiga ta'sir qilmoqda.

Mutaxassislariga ma'lumki, sil bilan og'ir turmush sharoitlarida yashaydigan, yetarli ovqatlanish imkoniyati past bo'lgan aholi vakillari kasallanadilar. Sil bilan kasallanish intsidentligining har 100 ming aholiga 200,0 dan yuqori bo'lgan ko'rsatkichlari G'arbiy zonaning Mo'ynoq (2014-yili), Shimoliy zonaning Taxtako'pir (2009, 2010, 2011-yillar), Qorao'zak (2009, 2010, 2011 va 2013-

yillar) va Chimboy (2010-yili) tumanlarida, Markaziy zonaning Nukus (2009-yili) tumanida, ya'ni asosan Shimoliy va G'arbiy zonada shakllangan (3-rasm).




**3-rasm. O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda sil bilan kasallanish dinamikasi (2009-2020 yy.)**

Qon va qon hosil qilish organlari kasalliklarining dinamikasini yoritishda yaqqollikka erishish maqsadida 2009-2021 yillar davridan 2011-2015 va 2016-2020 dan iborat 2 ta besh yillikni ajratib, ulardagi o'rtacha ko'rsatkichlar solishtirib o'rganildi. QR bo'yicha 2009-2021 yillarda qon va qon hosil qilish organlari kasalliklari ko'rsatkichlarining ichimlik suvi (ochiq suv havzalari suvi, vodoprovod suvi, quduq suvi) va atmosfera havosi kimyoviy ifloslanishi bilan korrelyatsion bog'lanishlarini aniqlash uchun Pirson usulida hisob-kitoblar qilindi. Olingan natijalarning haqqoniyligi Styudent testi bo'yicha baholandi.

Janubiy zonaning Ellikqal'a tumanida quduq suvi kimyoviy ifloslanishi qancha yuqori bo'lsa, qon va qon hosil qilish organlari kasalliklari bilan kasallanish shuncha yuqori bo'lishi, G'arbiy zona va shu zonaning Qo'ng'iro't tumanida hamda Shimoliy zonaning Taxtako'pir tumanida atmosfera havosi kimyoviy ifloslanishi qancha yuqori bo'lsa, qon va qon hosil qilish organlari kasalliklari bilan kasallanish shuncha yuqori bo'lishi aniqlandi.

QR bo'yicha 2009-2021-yillarda xavfli o'smalar ko'rsatkichlarining ichimlik suvi manbalari (ochiq suv havzalari suvi, vodoprovod suvi, quduq suvi) va atmosfera havosi kimyoviy ifloslanishi bilan korrelyatsion bog'lanishlarini aniqlash uchun Pirson usulida hisob-kitoblar qilindi. Olingan natijalarning haqqoniyligi Styudent testi bo'yicha baholandi (4-rasm).

